O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

“An’anaviy xonandalik” kafedrasi

RO‘ZIBOEVA SOHIBAning

«O‘ZBEK MAQOMOT TIZIMIDA «NAVO» MAQOMLARI»

Mavzuidagi Magistrlik

DISSERTATSIYaSI

Ilmiy rahbar: professor M.Yo‘lchieva

Toshkent 2018 y.

REJA:

K I R I SH

**I bob. O‘zbek Maqomot tizimi.**

§ 1. Maqomot – SHarq mamlakatlari tizimida.

§ 2. Maqomot – o‘zbek maqomlari tizimida(SHashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari tarkiblaridagi «Navo» maqomlari)

**II bob. Maqom va maqom yo‘llari turkumlarida«Navo»maqomi.**

§ 1. SHashmaqom turkumida “Navo” maqomi

§ 2. Navo maqomida qo‘llanilgan namudlar va ular haqida mahlumotlar.

**III bob. Navo maqomi tizimida yaratilgan cholg‘u va ashula yo‘llari.**

X U L O S A.

Adabiyotlar ro‘yxati.

ILOVA.

SHashmaqomdan Saraxbori Navo taronalari bilan.

Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llaridan

CHolg‘u musiqasi turkumlarida Surnay Navoiturkumi.

K I R I SH

Xalq musiqa sanhati insoniyat hayotidagi barchasohalar bilan uyg‘unlikda va millatning mahnaviyatini aks etib turadigan ulkan hodisadir. SHuning uchun dunyodagi hamma xalqlar ham milliy qadriyatlari negizida shakllangan betakror anhanalariga egadirlar. Xalqlarning ushbu milliy musiqalarida millatiga mos bo‘lgan barcha jihatlar ko‘rinib turadi.

Mahlumki, sharq xalqlarining musiqa meroslari juda ham ulkan. Manbalarda yozishlariga qaraganda, azal-azaldan SHarq xalqlari madaniyatida mumtozlik kasb etuvchi janrlar shakllanib, xalqlarining asosiy mahnaviyatini namoyon etishda va musiqa sanhatining rivojida juda katta ahamiyat kasb etib kelgan. Bunday xalqlar qatorida biz Hindiston, Pokiston, Eron, Turk, Iroq, Misr kabi davlatlarni bilamiz. CHunki ularning har birida xalq musiqasining mumtozlik darajasida yuzaga kelgan janrlari mavjud. Ular butun dunyo maqomoti tarkibiga kiruvchi xalqlarning yirik musiqiyjanrlari qatoriga kiradi.

O‘zbek xalq musiqasi ham qadimiy va boy anhanalarga ega bo‘lgan va ana shu jahon maqomoti tizimida alohida o‘ringa ega bo‘lgan o‘zining maqomlariga, yahni mumtoz musiqa merosi egadir. Bu borada bir qator o‘zbek musiqashunos olimlari o‘zlarining ilmiy-tadqiqotlarida tegishli mahlumotlar keltirganlar. Qayd etish kerakki, o‘zbek xalqining bu boradagi merosiga nazar soladigan bo‘lsak, o‘zining kengqamrovligini ko‘ramiz. Bu albatta Respublikamizla yirikto‘rtta voha mavjudlinigi va bu boharning har birini o‘z mahalliyanhanalariga asoslangan shevalari, o‘ziga xos urf – odatlari bor. Bu asosida yuzaga kelgan mumtoz musiqasi ham mavjud. Bularning hammasi bir bo‘lib o‘zbek xalqining mumtoz musiqa merosi deyiladi va har biri alohida nomlanganligini ko‘ramiz. Xususan,yoyo bu merosga Buxoro SHashmaqomi, Xorazm vohasida yuzaga kelgan Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent vohasida o‘ziga xos shaklda yuzaga kelgan Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari kiradi. Bundan tashqari maqomlarning cholg‘u yo‘llari mavjud bo‘zlib, ular ham amaliyotda turlicha nomlanadi. Xususan, Xorazm dutor maqomlari, Farg‘ona surnay maqom yo‘llari va boshqalar.

Maqomlar bizning xalqimizning boy mahanaviy dunyosini namoyon etuvchi eng muhim manbadir. Maqomlarning ushbu jihati xususida Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ham oʻzlariningbir qator kitoblarida tahkidlab oʻtganlar. Bunga misol, I.Karimov oʻzlarining ilk asarlaridan biri 1997 yilda nashr etilgan “Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida” kitoblarida quyidagicha ahamiyatga egaligini koʻrsatib oʻtadilar: – “Biz hamma vaqt keng aholi qatlamlarining ham mumtoz, ham zamonaviy milliy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahra olishga imkon berib kelgan madaniyat sarchashmalariga avaylab, munosabatda boʻlishni oʻrganib olishimiz lozim. Oʻzbekistonda musiqa, tasviriy, monumental va amaliy san’at sohalarida katta muvaffaqqiyatlarga erishganligi tasodifiy emas. Bu sanhat turlari chet elda keng ehtirof etilgan. Milliy va jaxon madaniyatining eng yaxshi namunalarini keng targʻib qilish va ommalashtirish, yosh avlodni, hozirgi yoshlarimizni tarbiyalashning asosi boʻlmogʻi kerak”[1].

XXI asrga kelib mumtoz musiqa va umuman maqomot tizimiga daxldor boʻlgan ushbu muhim manbalarning har biri alohida ahamiyatgaega boʻlgan musiqiydurdonalar sifatida qadr topdi. Mustaqillik yillaridan yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalashga ehtiborning avj olganligining ham sababalaridan biri shunda boʻlsa ajab emas. XXI asrningikkinchi oʻn yilligiga kelib mamlakatimiz rahbari SH.Mirziyoevning mumtoz musiqa, xususan, maqomlarga nisbatan boʻlgan ehtibori olamshumul ahamiyat kasb etdi. Maqomlarni oʻrganishga, ularni uzoq oʻtmishdan oʻrganilib kelinayotgan asl anhanalarini tiklashga, ustoz-shogird maktablarini qaytadan tiklab, hozirgi davrdagi ustozlarning faoliyatini rivojlantirishga va bu jarayonning juda ham katta ahamiyatgaega boʻlgan tomoni boʻlgan yoshlarni maqomlarimiz asosida tarbiyalashga qaratilishi Yurtboshimizning asosiygʻoyalaridan hisoblanadi. Maqom sanhatini rivojlantirishga bagʻishlangan

[1] Каримов. И. А. “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида” Тошкент; “Ўзбекистон” 1997 й. 150-бет

Prezident Qarorida belgilangan barcha maqsad va vazifalar, xalqimizning durdonalari hisoblangan milliy maqom sanhatini davrimizga mos rivojlantirishga bag‘ishlangan.[2]

O‘zbek mumtoz musiqasidagi maqomot tizimiga xos bo‘lgan namunalar xalq ijodkorlari tomonidan yaratilgandir. O‘zbek musiqamerosida maqomlarning yaratuvchilari bastakor deb yuritiladi. “Bastakor o‘tmishda – deb yozadi maqomshunos olim Ishoq Rajabov o‘zining “Maqomlar” kitobida – turli vazifalarni bajargan. Dastlab u yangi,original kuy va ashulalar yaratuvchisidir. Ikkinchidan, bastakor tayyor kuylar mavzuida ularning ritmik va kuy variantlarini ham yaratgan. Bunda bastakor kuy yo‘llariga yangi-yangi epizodlar, tayyor holdagi avjlar kiritgan. Ashula yo‘llariga yangi shehrlarni ustalik bilan bog‘lab, tushira bilgan sanhatkorlar ham bastakor nomiga mansub bo‘lgan”[3]. O‘zbek maqom sanhatining yuzaga kelishi va uning rivojida xalq ijodkorlari, yahni bastakorlar muhim rol o‘ynaganlar.

Mumtoz musiqaning eng mukammal va murakkab shakli bu – SHashmaqomdir. SHashmaqom tarixda bastakorlar ijodida yaratilgan va XVIII asrning oxiriga kelib to‘la-to‘kis shakllanib bo‘lingan, deb tarixiy kitoblarda yozilgan. Mumtoz musiqaning rivojida esa yetarli vohalarda va bastakorlik anhanalarida maqomlarning vohalarga xos shakllari ham yuzaga kelgan. Maqomlarning SHashmaqomdan tashqari O‘zbekistonda Xorazm maqomlari, Xorazm dutor maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, Farg‘ona vodiysi Surnay maqom yo‘llari degan namunalari yuzaga kelgan. Maqomlarning aynan mana shu namunalarini inobatga olgan holda  musiqashunos olim O.Matyoqubov o‘zbek maqomoti tizimi degan iborani kiritgan. Ya’ni, – “O‘rta Osiyo klassik musiqasining tarixiyshakllangan yagona tizimi Maqomot, yahni Buxoro SHashmaqomi, Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, shuningdek, ularning XX asrda O‘zbekiston va Tojikistonda yuzaga kelgan yangi ko‘rinishlari o‘z aksini topgan.

[2]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.11.2017 yil PQ № 3391 sonli qarori.
[3] I.Rajabov. “Maqomlar”, T.; 2006 y. 32-bet.

Ularning barchasi umumlashtirilib, “Maqomot” (maqomlarning ko‘plik shakliga nisbatan o‘zbek-tojik tillarida ishlatiladigan maxsus atama) nomi bilan yuritiladi.[4]

O‘zbek mumtoz musiqasining maqomot tiziminiilmiy va amaliy o‘rganishda bir qator o‘tmish olimlari o‘zlarining musiqaga bag‘ishlabyozgan kitoblarida qimmatli mahlumotlar keltirganlar. Masalan,SHashmaqomni o‘rganishda V.Uspenskiy, V.Belyaev, I.Rajabov, Yu.Rajabiy, I.Akbarov, F.Karomatov, R.Abdullaev, O.Matyoqubov, A.Nazarov, O.Ibrohimov, R.Yunusov kabi olimlar ilmiy izlanishlarini olib borganlar. Ular orasida mashhur maqomdon olim Ishoq Rajabovning olibborgan izlanishlarinialohida qayd etish lozimdir. 1963 yili nashr etilgan «Maqomlar masalasiga doir» (2006 yili “Maqomlar” nomida O.Ibrohimov tomonidan nashr etilgan). 1992 yili “Maqom asoslari” o‘quv qo‘llanmasi, 2004 yili O.Matyoqubov, “Maqomot” kitoblari nashr etilgan. Bu kitoblardamaqomot tizimigadoir masalalar atroflicha yoritib berilgan. SHubilan birga Maqomlarni o‘rganishda eng kerakli va qulay kitoblar «O‘zbek xalq musiqasi»[5] 9 ta jildlari, “Surnay maqom yo‘llari”[6], «Xalq ijodini o‘rganish masalalari»ga bag‘ishlangan turli to‘plamlar kerakli kitoblar hisoblanadi.

**Mavzuning dolzarbligi.** O‘zbek mumtoz musiqasi, yahni maqomot tizimiga xos bo‘lgan namunalarni ijro etish va rivojlantirish kerakli darajada davom etib kelmoqda. Ijro amaliyotida xonanda va sozandalar uchragan asarlarni ijro etib kelavernadilar. Maqomot tizimiga kiruvchi maqom namunalarining har biri SHashmaqomga asoslangan bo‘lsada o‘zining vohaviy jihatlari negizida yuzaga kelgan. Ularning har bir namunalariga murojaat etish uchun sozanda va xonandalar kerakli bilimga ega bo‘lishlari kerak.

O‘zbek mumtoz musiqasining asosiy jihatlarini o‘rganish eng muhimi SHashmaqomni yaxshi o‘zlashtirish lozimdir. SHashmaqomni o‘zlashtirgan har bir xonanda maqomot tizimini ham anglashi oson bo‘ladi. Ijrochilik anhanalarida

---

[4] O.Matyoqubov, “Maqomot”,T.; “Musiqa” 2004 yil, 10-bet.
[5] Yu.Rajabiy. ”O‘zbek musiqasi tarixi” 1-9 tomlar, 1955-59 yy.
[6] S.Begmatov. “Surnay maqom yo‘llari”, T., 2007 y.

xonandalar maqomot tizimidagi barcha maqomlarning namunalariga murojaat etadilar. Xonandalar uchun Xorazm maqomlaridan kuylash ularning mahoratlarini oshiradi. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarida SHashmaqomdan oldinroq murojaat etishadi. CHunki SHashmaqomga nisbatan ularning tarkibiy tuzilmalari osonroqdir.

Har bir maqomijrochisi maqomot tizimidagi barcha maqom yo‘llarinibilib olishlari ijrochilik amaliyotida doimo dolzarb masala bo‘libkelgan. Buning uchun ustoz-shogird maktabini o‘zlashtirish yaxshi natijaga olib keladi. Maqomlar tizimini o‘rganishning o‘zi mushkul. SHuning uchun biz maqomot tizimida bir maqom namunasi misolida, ularning qay darajada maqomot tizimiga daxldorligini tasavvur etishga harakat qilamiz.

**O‘rganilganlik darajasi:** Maqomottizimidagi maqomlarda mavjud bo‘lgan Navo maqomi namunalari Ishoq Rajabovning “Maqomlar masalasiga doir”, “Maqomlar” va “Maqom asoslari” o‘quv qo‘llanmasida, O.Ibrohimov “Farg‘ona-Toshkent maqomlarni kitobida, O.Matyoqubov “Maqomot” kitobida, S.Begmatov Surnay maqom yo‘llari kitoblarida mavzuga tegizliNavolar haqida mahlumotlar keltirganlar.

Ushbu ishimizda biz ham yuqorida keltirilgan kitoblarga asoslanib, ularni barchasini o‘rgangan holda, ulardagi mahlumotlarga asoslanib yozishga harakat qilamiz.

**Metodologik asoslari**: magistrlik disertatsiyasini yozishda, asosan, yuqorida qayd etilgan Ishoq Rajabov, O.Matyoqubov, R.Yunusov, O.Ibrohimov, S.Begmatovlarning maqomot tizimidagi maqom namunalariga bag‘ishlangan kitoblariga tayandik. Bunda asosan keltirilgan kitoblarning barchasiga asoslanildi. Navo nomi bilan yuritilib kelingan maqomlarning maqomot tizimidagi asarlar va ularning ijro anhanalarini Anhanaviy xonandalik kafedrasi professor o‘qituvchilarining maslahatlaridan ham keng foydalandik. Xususan, O‘zbekiston xalq artisti Munojot Yo‘lchieva, dotsent Komila Bo‘rieva va O‘zbekiston xalq hofizi Mahmudjon Tojiboevlar.

**Ishning obhekti** sifatida oʻzbek mumtoz musiqa merosida mavjud va maqomot tizimidagi maoqmlar tarkibidan oʻrin olgan va “Navo” deb yuritilib kelinayotgan maqomlarni tarkibini aniqlash deb belgilandi.

Ishimizning **asosiy maqsadi** oʻzbek maqomot tizimi tarkibidan oʻrin olgan va bir xil nomlar bilan yuritilib kelinadigan maqomlarni anglash, “Navo” maqomi misolida koʻrib chiqish va “Navo” maqomida uchraydigan namudlar tizimini tahlil qilishdan iborat.

Oldimizga qoʻyilgan asosiy maqsadni amalga oshirishda quyidagi **vazifalar** belgilab olindi:

- Oʻzbek mumtoz musiqa merosida yuzaga kelgan maqomot tizimi bilan tanishish;
- Buxoro SHashmaqomi, Xorazm maqomlari va Fargʻona-Toshkent maqom yoʻllari tarkiblaridagi «Navo» maqomlarixususida mahlumot berish;
- anhanaviy ijrochilik yoʻnalishi boʻyicha mutaxassislikdan oʻzlashtirayotgan SHashmaqom tarkibidagi “Navo” maqomi bilan bogʻliq boʻlgan ayrim mahlumotlar keltirish;
- shashmaqom tarkibidan oʻrin olgan “Navo” maqomini tarkiban oʻrganish;
- maqomlarda qoʻllaniladigan namudlarni aniqlab bilish;
- ijrochilik anhanalarida, Navo maqomoti tizimida yaratilgan cholgʻu va ashula yoʻllari.

**Ishning tarkibi.**

Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch bob, xulosa va foydalangan adabiyotlar roʻyxati hamda maqomot tizimidagi Navo maqomlarining notalaridan tuzilgan – ilovadan iborat. Birinchi bobda Oʻzbek Maqomot tizimi (SHashmaqom, Xorazm maqomlari va Fargʻona-Toshkent maqom yoʻllari tarkiblaridagi «Navo» maqomlari)ga toʻxtalamiz. Ikkinchi bobda maqomot tizimidagi barcha Maqom va maqom yoʻllari turkumlarida «Navo» maqomi namunalari xususida soʻz yuritiladi.

Xususan: SHashmaqom turkumida “Navo” maqomi hamda Navo maqomida qo‘llanilgan namudlar va ular haqida mahlumotlar bayon etiladi.

Uchinchi bobda Navo maqomoti tizimida yaratilgan cholg‘u va ashula xususida fikr yuriiladi. Xulosada ijrochi fikrlar muxtasar bayon etiladi. Ilovada Navo maqomlariga tegishli nota namunalari keltiriladi.

# I BOB. O‘ZBEK MAQOMOT TIZIMI

## § 1. Maqomot – SHarq mamlakatlari mumtoz musiqasi tizimida.

Maqomot iborasi musiqa sanhatida kengmahnoda ishlatilib kelingan. Bunda, asosan, SHarqxalqlarining mumtoz musiqasida maqomlarga o‘xshagan yirik janrlarni umumlashtirgan holatlarida ishlatilib kelingan. Yahni, maqomot – maqom so‘zining ko‘plikshakli bo‘lib, maqomlar mahnosini anglatadi. Aslida maqomot butun SHarq mamlakatlarida ushbu janrga xos bo‘lgan maqomlarning mavjudligiga asoslangan va ularni bir butunlikda atash maqsadida maqomot iborasi ishlatilib kelingan.

Amaliyotda bunday maqomlarning keng ommalashgan turlari quyidagi mamlakatlar bilan bog‘liq. Xususan: Maqomot tizimiga kiruvchi mamlakatlar va ularning mumtoz musiqasida maqomlarga o‘xshagan janrlari kitoblarda quyidagicha bayon etiladi: Hindistonda uchta maqom namunasi bo‘lib, ularning eng yirik, yahni katta shaklga ega bo‘lgani “Raga”dir. Undan keyingi SHimoliy Hindistonning Kashmir viloyatida yuzaga kelgan va musulmonlar musiqiy anhanalariga bag‘ishlangan Kashmir maqomlari. Ular amaliyotda “So‘fiyona Kalom” deb yuritiladi. Uchinchi namuna PokistonningHindistondan ajralib chiqqanidan so‘ng Pokiston mumtoz musiqasining yirik janri hisoblangan “Qavalli” janridir.

Uzoq va Yaqin SHarqda ham xalqlarning mumtoz shakldagi maqomsifat janrlari yuzaga kelgan. Ularning qatoriga Eron mumtoz musiqiy shakli hisoblangan – Dastgohlar, Iroq arab xalqining – Maqamlari, Turk va Kurd – maqamlari, Jazoir va Tunisliklarning – Nubalarini, Turk va kurd (har bir xalqdaalohida) maqamlari, Ozarbayjon hamda Armanlarning Mug‘omlari, Uyg‘urlarning – muqomlarini kiritish mumkin.

Iroda G‘anievaning SHarq mamlakatlari musiqa tarixikitobida[7] keltirilishicha Misrliklarning maqamlari va boshqa arab xalqlarida ham mumtoz musiqa namunalari mavjud bo‘lib, o‘zining soddaroq tarkibi bilan ajralib turishi tahkidlab o‘tiladi va har bir namunalar xususida alohida mahlumotlar berib o‘tadi.

[7] I.G‘anieva. Shfrq xalqlari musiqa tarixi. T., 2011y.

Umuman olganda – “Maqomlar SHarq xalqlarining juda qadim zamonlardan mavjud bo‘lgan musiqa janridir. Ular bu xalqlarning o‘ziga xos musiqa boyliklari asosida kasbiy sozanda va xonandalar tomonidan yaratilgan va uzoq madaniy-tarixiy taraqqiyot jarayonida mustaqil musiqa janri sifatida yuzaga kelgan... Maqomlar SHarq xalqlari musiqasining asosini tashkil etadi”[8] – deb yozadi musiqashunos olim Ishoq Rajabov. Ushbu musiqiy janrlarning barcha ichki xususiyatlari, tuzilishlari, tarkibiy tizimlarida bir biriga o‘xshashlikborligi va eng muhimi hisoblangan umumiylik xususiyatlari mavjudligi bois ularni bir so‘z bilan maqomot deb yuritiladi.

Odatda, SHarq mamlakatlarining mumtoz musiqasidagi yirik turkumiy asarlar, har bir mamlakatning o‘ziga xos nomlanishlari zaminida amaliyotda mavjud bo‘lgan. Yuqorida keltirilgan nomlar shular jumlasidandir. Bularni yagona tizimga keltirilgan holda, ular umumiy nom bilan “Maqamat” deb yuritilib kelinadi.

Markaziy Osiyoda ham maqomotga tegishli bo‘lgan turkumiy asarlar yaratilib kelingan. Bu xususda ham musiqashunos olimlar o‘z kitoblarida yozib qoldirganlar. Xususan, musiqashunos olim O.Matyoqubov o‘zining “Maqomot” kitobida bu haqida quyidagilarni yozadi: “O‘rta Osiyo mintaqasiningmaqomoti bu yirik shajaraning asoslaridan birini tashkil etadi. U ham maqamatga o‘xshab tarixan shakllangan turli toifalarni o‘z ichiga oluvchi yig‘ma tushuncha. **Maqomot – Buxoro SHashmaqomi, Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari hamda ular zaminida yuzaga kelgan yangizamonaviy navlarni ko‘zda tutadi.** Maqomotning umumiylik tomonlari uning tarkibidagi maqom ko‘rinishlarining obrazlar dunyosi, muayyan kuy va ashulalarning parda asoslari va usullarning o‘xshashligida o‘z aksini topadi. O‘ziga xoslik tomonlari esa mustaqil kuy va ashulalar va parda tizimlarining xususiyatlari, cholg‘u sozlari, ijro uslublari, qolaversa, kuy va ohanglarining betakror jarangida namoyon bo‘ladi[9].

---

[8] I.Rajabov. “Maqomlar” T.,2006 y. 11bet.
[9] O.Matyoqubov. Maqomot. T., 2004 y. 49 bet.

SHarq mamlakatlari maqomoti xususidagi fikrlarni muxtasar qilib shuni aytish kerakki, SHarq mamlakatlarida, yahni rivojlangan va madaniyati buyuk hisoblangan xalqlarda musiqa sohasining ijodiy jarayoni keng rivojlangan. Natijada oʻziga xosxalq mumtoz musiqasi yuzaga kelgan. Albatta, biror-bir shaxs, yahni bastakorlar tomonidan yaratilgan. Har bir xalqning buyuk bastakorlari tomonidan yuzaga kelgan musiqa namunalar maqomlar kabi shakl topgan. Va xalqlarning eng yirik musiqanamunalari sifatida avlodlardan-avlodlarga oʻtib kelgan. SHarq halqlarining ana shunday, maqomlar kabi musiqa merosi umumiy maqomot tizimiga kiruvchi asarlar sifatida yuritilibkelinishi odat tusiga kirgan.

## § 2. Maqomot – o‘zbek maqomlari tizimida

(SHashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari tarkiblari)

Xalq bastakorlari tomonidan yaratilib, avlodlardan-avlodlarga o‘tib, rivojlanib kelinayotgan maqomlar alohida ko‘rinishlarda yuzaga kelgan. O‘zbekiston vohalarining o‘z shevalariga qarab o‘zlarining mumtoz musiqa namunalari shakllanganligi hech kimga sir emas. Faqat aytish kerakki, har bir vohada shakllangan maqomlarimizning bir-biriga o‘xshashligi va ularning ildizlari birligi ularning ohanglarida sezilib turadi. SHuning uchun bo‘lsa kerak, musiqashunos olim, sanhatshunloslik fanlari nomzodi Otanazar Matyoqubov O‘zbekiston territoriyasida mavjud bo‘lgan hamma maqom turlarini ham maqomot tizimiga mos ekanligini o‘zining “Maqomot” kitobida yozib o‘tadi. Xususan u –“O‘rta Osiyo klassik musiqasining tarixiy shakllangan yagona tizimi Maqomot, yahni Buxoro SHashmaqomi, Xorazm maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, shuningdek, ularning XX asrda O‘zbekiston va Tojikistonda yuzaga kelgan yangi ko‘rinishlari o‘z aksini topgan. Ularning barchasi umumlashtirilib, “Maqomot” (maqomlarning ko‘plik shakliga nisbatan o‘zbek-tojik tillarida ishlatiladigan maxsus atama) nomi bilan yuritiladi”[10]– deb qayd etadi.

O‘zbek maqomlariga tahrifbergan Ishoq Rajabov ularni quyidagicha tahriflaydi: – «Maqomlar bastakorlik traditsiyalari asosida bunyodga kelgan mumtoz musiqamizning ulkan merosidir»[11]. Bunday anhanada yuzaga kelgan maqomlarning bir qator turlari mavjuddir. Ular SHashmaqom (Buxoro SHashmaqomi), Xorazm maqomlari (Xorazm olti yarimmaqomlari), Xorazm Dutor maqomlari, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari (Ularni to‘rtta deb hisoblaydilar, Farg‘ona surnay maqom yo‘llari (oltita namunasi kitoblarda berilgan), CHolg‘u maqom yo‘llaridan iboratdir.

[10] O.Matyoqubov, “Maqomot”,T.; “Musiqa”  2004 yil, 10-bet.

[11] I.Rajabov. “ Maqomlar masalasiga doir” T., «Fan», 1963 y. s 182

**SHASHMAQOM**. Manbalarda yozilishicha SHashmaqom XVIII asr oxiriga kelib to‘la shakllangan. Maqomlarga xos tarkibini topdi. Xalq orasida yetuk sanhatkorlar, xonanda vasozandalar, maqom sanhatining yetuk bilimdonlari shakllandi. SHuning uchun SHashmaqom keyingi yillar davomida, ijrochilik amaliyoti davomida zamonaga mos holda rivojlandi, og‘zaki tarzda avloddan-avlodga o‘tib kelishi jarayonida maqomlar hozirgi ko‘rinishda bizning davrimizgacha yetib keldi.

Maqom bilimdoni Ishoq Rajabov o‘zining “Maqom asoslari” kitobida – “SHashmaqom o‘zbek xalq musiqiy merosida juda katta o‘rin tutadi. SHashmaqom yo‘llarida milliy va mahalliy musiqaning boy ohanglari, vazn xususiyatlari, doyra usullari va ashulalari shehrlariga moslab tushira bilish qoidalariga bog‘liq qator tomonlar mujassamlangan”[12] – deb uning o‘zbek musiqa merosidagi murakab va mukammal asarligi va ko‘p jihatlarni o‘zida mujassam etganligini bayon etib bergan

Bundan kelib chiqadiki, haqiqatdan ham SHashmaqom xalq mumtoz musiqa merosining asosini tashkil etadi. SHashmaqomning o‘zi xalqimizning mahanaviy va milliy anhanalaridagi murakkab va mukammal ohanglar majmui, yahni musiqiy qomusi. Keyingi bir necha asrlarda xalqimiz orasida yuzaga kelgan maqom yo‘llaridagi, xalq anhanalariga asoslangan musiqiy namunalarning ilhom manbai sifatida xizmat qilib keladi. Har qanday ashula, qo‘shiqlarning maqomlardan olgan muayyan bir jihati bo‘lishi muqarrar. Hech bo‘lmaganda ular maqomlardan rang oladi, ilhom oladi, shakl oladi va ijrosida taqlid qiladi. SHuning uchun bo‘lsa kerak ustozlarimiz orasida “SHashmaqom” milliy xalq musiqalarimizni yaratilishidagi betub buloqdir” degan gap bejizga aytilmagan.

SHashmaqomning tarkibidan olti maqom o‘rin olgan. Bular “Buzruk”, “Rost”, “Navo”, “Dugoh”, “Segoh” va “Iroq” maqomlaridir. Ularning har biri yirik shakldagi turkumli asar hisoblanadi va bir qator (20 tadan 45 tagacha) turli hajmdagi kuy va ashulalarni o‘z tarkibiga oladi. SHashmaqomdagi har bir maqom alohida

[12]Isxoq Rajabov. “Maқom asoslari”, T., 1992 y. 9-bet.

turkum asar hisoblanadi. Ularning nomlanishlarini o‘zida xarakterlari sezilib turadi va tarkibi esa quyidagichadir. Maqomlar ikki ulkan kismni o‘z ichiga oladi. Ular odatda xalq orasida alohida vayozishda alohidaiboralar bilan atalib kelinadi. Maqomlar cholg‘u qism bilan boshlanadi va “Mushkilot” deb yuritiladi. SHashmaqom tarkibidagi har bir maqom Tasnif, Tarjeh, Gardun, Muxammas va Saqillardan tarkib topgan. Bularning soni har bir maqomda o‘zgachadir. Asarlarning qo‘shilishi bilan sonlari o‘zgarishi mumkin.

SHashmaqomning ikkinchi qism ashula, yahni Nasr bo‘limi deb yuritiladi. Nasr qismining o‘zi ikki guruh sho‘hbalarga bo‘linadi va **birinchi** hamda **ikkinchi** guruh sho‘hbalar deb atalib kelingan. Nasr bo‘limida birinchi guruh sho‘hbalar asosiy qism hisoblanadi va yetakchi hamda asosiy kichik turkumlar hisoblanadi. Yahni, Saraxbor va ularning taronalari, Talqin va ularning taronalari, Nasr va ularning taronalarini o‘z tarkibiga oladi va Ufarlar bilan yakunlanadi.

Nasr bo‘limining Ikkinchi guruh sho‘hbalari esa, odatda “Savt” va “Mo‘g‘ulcha” turkumlari deb yuritiladi. Ularning tarkibi asosan besh ashuladan iboratdir. Ulardagi Savt va Mo‘g‘ulchalarga asosiy boshlovchi qismdir. Ularga ulanib tarkibidan ketma-ket Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufarlar o‘rin olgan. Ikkinchi guruh sho‘hbalarning ham SHashmaqom tarkibidan o‘rnin olgan maqomlardagi soni turlichadir.

Buzruk maqomida: Mo‘g‘ulchai Buzruk,Savti Sarvinoz, Iroqi Buxoro va Rok;

Rost maqomida: Savti Ushshoq,Savti Sabo,Savti Kalon;

Navo mavomida: Mo‘g‘ulchai Navo, Savti Navo, Mustahzodi Navo;

Dugoh maqomida: Mo‘g‘ulchai Dugoh, Savti CHorgoh, Qalandari, Samandari, Saraxbori Oromijon;

Segoh maqomida: Mo‘g‘ulchai Segoh.

SHashmaqomning umumiy ko‘rinishi quyidagichadir:




**XORAZM MAQOMLARI**. Xorazm maqomlari haqida bir qator kitoblarda kerakli mahlumotlar keltirilgan. Jumladan: “Xorazm musiqa tarixchasi” birnecha marotaba nashr etilgan. M.Yusupov tomonidan oʻzbek xalq musiqasi kitobining 6 tomida “Xorazm maqomlari”. Bunday keyin “Xorazm maqomlarining 3 tomlik yangi nashri oʻtgan asrning 80-yillarida nashr etilgan.

## Xorazm maqomlari[13]

| Rost | Buzruk | Navo | Dugoh | Segoh | Iroq |
|---|---|---|---|---|---|
| **CHertim yo‘li**<br>(Mansur)<br>Maqomi Rost<br>Tarjeh Rost<br>Peshravi Gardun<br>Murabbai Komil<br>Muxammasi Rost<br>Muxammasi Jaddidi Feruz<br>Musabbag‘i Rosti Mirzo<br>Saqili Rost<br>Saqili Muhrkani Rost<br>Ufari Rost | **CHertim yo‘li**<br>(Mansur)<br>Maqomi Buzruk<br>Peshravi Buzruk I,II,III<br>Se usuliBuzruk<br>MuxammasiBuzruk<br>Muxammasi Feruzi Buzruk<br>Saqili Islimxon<br>Saqili Niyozxo‘ja<br>Saqili Sulton | **CHertim yo‘li**<br>(Mansur)<br>Maqom Navo<br>Peshrav Navo,<br>Peshravi Zanjiriy<br>Saqili Navo<br>Saqili Feruzshohi<br>Muxammasi Navo<br>Muxammasi Bayot<br>Nimsaqil<br>Ufar | **CHertim yo‘l**<br>(Mansur)<br>Maqomi Dugoh<br>Tarjei Dugoh<br>PeshraviDugoh I-IV<br>Zarbul-Fatxi Dugoh<br>Saqili Ashkullo<br>Saqili Feruzshohiy<br>Muxammas Samoiy<br>Poxtazarb<br>Ufar | **CHertim yo‘li**<br>(Mansur)<br>Maqomi Segoh<br>Peshravi Segoh<br>Saqili Segoh<br>Saqili Segoh<br>Saqili Feruzshohiy<br>CHor usuli Feruz<br>Xafifi Segoh | **CHertim yo‘li**<br>(Mansur)<br>Maqomi Iroq<br>Tarjei Iroq<br>Peshravi Iroq<br>Muxammasi Iroq I<br>Muxammasi Feruzshohiy II<br>Se usuli Iroq<br>Seusuli Feruzi Iroq<br>Saqil Iroqi I,II,<br>Saqil Iroqi III,<br>Naqshi Iroq<br>Ufari Iroq |
| **Aytim yo‘li**<br>(Manzum) | **Aytim yo‘li**<br>(Manzum) | **Aytim yo‘li**<br>(Manzum) | **Aytim yo‘li**<br>(Manzum) | **Aytim yo‘li**<br>(Manzum) | **Maqomi** |

[13] И.Ражабовнинг “Мақомлар (Т.,2006, б.269-270) китобида берилган маълумот. Бу маълумот Хоразм мақомларининг тўлдирилган варианти бўлиб, илк туркумдан фарқ қилади.

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Maqomi Rost<br>Taronai Rost<br>Suvorai Rost<br>Naqshi Rost<br>Talqini Rost<br>NAsri Ushshoq<br>Nasri Sabo<br>Ufari Rost | Maqomi Buzruk<br>Taronai Buzruk I - II,III,IV.<br>Muqaddimai Talqin I Buzruk<br>Talqini Buzruk<br>Nasri Nasrulloiy<br>Nasri Ajam<br>Suvoriyi Buzruk<br>Naqshi Buzruk<br>Muqaddimai Nasri Uzzol<br>Nasri Uzzol<br>Ufari Maqom Buzruk | Maqomi Navo<br>Toronai Navo<br>Suvoriyi Navo<br>Talqini<br>Mustahzodi Navo<br>Muqaddimai<br>Talqini Navo<br>Talqini Navo<br>Nasri Taronai<br>Xorazmiy Navo<br>Nasri Bayot<br>Muqaddimai<br>Nasri Oraz<br>Muqaddimai<br>Dugoh Husayniy<br>Suvoriyi Dugoh<br>Husayniy | Maqomi Degoh<br>Taronai avvali Dugoh<br>Taronai Dugoh II-III<br>Muqaddimai Nasri CHorgoh<br>Nasri CHorgoh<br>Iyi Dugohuvora<br>Naqshi Dugoh<br>Nasri OraziDugoh<br>Nasri Dugohi Husayniy<br>Talqini DugohiHusayniy<br>Ufari Dugohi I, II | Maqomi Segoh<br>Taronai avvali Segoh I, II, III<br>Muqaddimai<br>Talqini Segoh<br>Talqini Segoh<br>Muqaddimai<br>Nasri Hijozi Segoh<br>Nasri Hijozi Segoh<br>NAsri Navro‘zi<br>Xoroi Segoh<br>Suvoriyi Segoh<br>Naqshi Segoh<br>Taronai Nasri<br>Ajami Segoh<br>Nasri Ajami Segoh | **PANJGOH**<br>Maqomi Panjgoh<br>Peshravi Panjgohi I,II<br>Saqili vazmin<br>Saqili Feruzshohiy<br>Se usuli maqomi Panjgoh<br>Muxammasi Panjgoh<br>Muxammasi Ushshoq |

Kitoblarda yozilishicha, ayniqsa I.Rajabovning “Maqomlar masalasiga doir” kitobida Xorazm maqomlari 6 maqomdan iboratligi ko‘rsatilib o‘tiladi. Ayrim kitoblarda 6,5 maqom haqida gapiriladi va 7-maqom Panjgoh deb beriladi. Xususan:– “M.Xarratovning ko‘rsatishicha, Xorazm maqomlari quyidagi tartibdasanaladi: Rost, Navo, Segoh, Dugoh,Buzruk vaIroq. Uning aytishicha, xorazmlik musiqachi-bastakorlar SHashmaqom tarkibiga Panjgoh nomli yettinchi maqom qo‘shganlar. Bu maqom faqat cholg‘u yo‘llaridangina iborat bo‘lib, yarim maqom hisoblanadi”[14].

Xorazm maqomlari hamBuxoro SHashmaqomiga o‘xshab ikki qismdan iboratdir. Farqi ularning nomlanishlaridadir. Xorazm maqomlarining cholg‘u yo‘llari Mansur – SHashmaqomda Mushkilot, ashula yo‘llari Manzum – SHashmaqomda Nasr deb yuritiladi. Bundan tashqari Xorazmda cholg‘u yo‘li – CHertim va ashula qismini – Aytim yo‘li ham deb yuritish keng ommalashgan.

Xorazm maqomlariningSHashmaqomdan farqi, yahni ularda ikkinchi guruh sho‘hbalar bo‘lmaydi.

## FARG‘ONA – TOSHKENT MAQOM YO‘LLARI.

Farg‘ona vodiysi, yahniunga qarashli bo‘lgan Namangan, Andijon, Farg‘ona viloyatlari hamda Toshkent vohasini birlashtirgan holda ularning musiqa amaliyotidagi maqom namunalarini Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari deb yuritiladi.

Bunga kiruvchi maqom yo‘llari “Dugoh-Husayn”, “CHorgoh”, “Bayotlar” va “Gulyor-SHahnoz” maqomlaridir. Bundan tashqari, alohida cholg‘uYo‘llari mavjud bo‘lib, amaliyotdaular – «Nasrullo I-V”,  “Munojot1-3», «Miskin I-V», «Mirzadavlat I-II»kabibir necha cholg‘u turkumlari mavjuddir.

[14] I.Rajabov. “Maqomlar”, T.,2006 y. 263-264 betlar.

## II BOB. Maqom va maqom yo‘llari turkumlarida «Navo»maqomi.

### § 1. SHashmaqom turkumida “Navo” maqomi

SHashmaqom maqomot tizimiga kiruvchi o‘zbek va tojik xalqlarining yetakchi hamda mumtoz musiqasining eng yirikjanridir. Maqomlar odatda, SHarq xalqlarining o‘tmish hayotidan darak beruvchimahnaviy boyligi, buyuk madaniyatga ega ekanligini ko‘rsatib turadigan sanhat namunalaridir. Maqomlar har bir xalqning mahnaviy boyligi sifatida doimo qadrlarlanib, avlodlardan-avlodlarga o‘tib kelgan. Mumtoz musiqa janriga kiruvchi bu namunalar asrlar osha xalq bastakorlari tomonidan yaratilgan. Ijrochilik amaliyotida, og‘zaki anhana tarzida ijod etilib, avaylab-asrashlar zaminida rivojlanib kelingan. CHunki maqomlar xalqlarning mahnaviy dunyosini, milliy qadriyatlari hamda ruhiyatini ifodalab beruvchi sanhat namunalari hisoblangan. SHarq xalqlarining orasida o‘zbek va tojik xalqlari ham o‘ziningSHashmaqom turkumlariga egadir.

Taniqli musiqashunos olim Ishoq Rajabov o‘zlarining «Maqomlar masalasiga doir» kitoblarida o‘zbekva tojikmaqomlarini quyidagicha tahriflagan: «Maqomlar bastakorlik traditsiyalari asosida bunyodga kelgan mumtoz musiqamizning ulkan merosidir»[15].

Musiqashunosolimlarning o‘z kitoblarida yozishlaricha SHashmaqom XVIII asrning oxiriga kelib to‘la-to‘kis shakllanib bo‘lingan. Undan keyingi yillarda, xalq ijrochiligi amaliyotida o‘ziga xos holda rivojlangan, og‘zaki tarzda ustozdan shogirdlarga avlodlardan-avlodlarga o‘tib kelishi jarayonida maqomlar hozirgi ko‘rinishda bizning davrimizgacha yetib kelgan.

Musiqashunos olim Ishoq Rajabov o‘zining “Maqom asoslari” kitobida – “SHashmaqom o‘zbek xalq musiqiy merosida juda katta o‘rin tutadi. SHashmaqom yo‘llarida milliy va mahalliy musiqaning boy ohanglari, vazn xususiyatlari, doyra usullari va ashulalari shehrlariga moslab tushira bilish qoidalariga bog‘liq qator

[15] I.Rajabov. “Maqomlar masalasiga doir” T., “ Fan” , 1963 y.  182-bet.

tomonlar mujassamlangan”[16] – deb shashmaqomning oʻzbek xalq mumtoz musiqasining yetakchi janri ekanligini ehtirof etgan.

Hozirda SHashmaqom xalqimiz mumtoz musiqa merosining asosini tashkil etadi. SHashmaqomning oʻzi xalqimizning mahanaviy va milliy anhanalaridagi murakkab va mukammal ohanglar majmui, yahni musiqiy qomusi. Keyingi bir necha yillarda xalqimiz orasida yuzaga kelgan maqom yoʻllarida yuzaga kelgan maqom yoʻdllariga, mumtoz kuy vaashulalarga ilhom manbai sifatida xizmat qilib kelgan. Yuzaga kelgan har qanday ashulalar va qoʻshiqlar, cholgʻu kuylarining maqomlardan olgan bir jihati boʻlishi muqarrardir. SHuning uchun ustozlar uni“milliy musiqamizning bulogʻi” deb yuritib keladilar.

SHashmaqom –olti maqom degan mahnoni anglatadi. CHunki, uning tarkibida oʻzbek va tojik xalqlarining amaliyotida yuzaga kelgan oltita yirik maqom oʻrin olgan. Bular “Buzruk”, “Rost”, “Navo”, “Dugoh”, “Segoh” va “Iroq” maqomlaridir. Ularning har biri yirik shakldagi turkumli asar hisoblanadi va 20 tadan 45 tagacha kuy va ashulalarni, maqom yoʻllaridagi asarlarni oʻz ichiga oladi. Bu asarlar, avvalo, turkumiy asarlardar. SHashmaqomning har bir maqomi tarkibida oʻntagacha kichik turkumlar mavjud. Ularning har biri oʻz ichiga oltitagacha asarlarni qamrab olgan. Bu asarlarni turkum sifatida ijro etilsa SHashmaqomning buyukligi namoyon boʻladi. Lekin bu asarlarni alohida asar sifatida ham ijro etish mumkin.

SHashmaqom bu janrning eng yirik koʻrinishi hisoblanadi. Uning tarkibidagi har bir maqom ham ikkitayirik kismlarga boʻlingan. SHashmaqom odatda cholgʻu kuylaridan boshlanadi. SHuning uchun bosh qismi “Mushkilot”, yahni cholgʻu boʻlimi deb yuritiladi. SHashmaqomning mushkilot qismi Tasnif, Tarjeh, Gardun, Muxammas va Saqillardan tarkib topgan koʻpxususiyatgaega. Ular alohida, ikki qismbirga va butun ham ijro etilishi mumkin. Masalan Tasnif-Tarjeh yoki Tasnif-Gardun va h.k.

[16] I.Rajabov. “Maqom asoslari” T., 2014 y. 9-bet.

SHashmaqomning ikkinchi qismi Nasr bo‘limi, yahni ashula deb yuritiladi. Nasr qismining o‘zi ichki tarkibidan ikki guruh sho‘hbalariga bo‘linadi va amaliyotda Birinchi hamda ikkinchi guruh sho‘hbalar deb yuritish rasm bo‘lgan. Birinchi guruh sho‘hbalarimaqomlarning asosiy qismi bo‘lib, Saraxbor va ularning taronalari, Talqin va ularning taronalari, Nasr va ularning taronalari kabi kichik turkumlarni o‘z tarkibiga oladi. Birinchi guruh sho‘balar tantanaliUfarlar bilan yakunlanadi.

Ikkinchi guruh sho‘hbalari esa odatda asosiy qism bo‘lmish birinchi guruh sho‘hbalari negizida yaratilgan bo‘lib, SHashmaqomning rivojlanish jarayonida tarkibiga kiritilganlingi kitoblarda keltiriladi. Ikkinchi guruh sho‘hbalar “Savt” va “Mo‘g‘ulcha” turkumlari deb yuritilib kelinadi. Ularning tarkibida yetakchi asar Savt va Mo‘g‘ulchalar bo‘lib, turkumning nomlanishiham shu nomlar bilan atalib kelinadi. Yahni Savtlar yoki Mo‘g‘ulchalar. Turkumda ularga ulanib Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufarlar kabi asarlar o‘rin olgan. Ushbu turkum ham xuddi birinchi guruh sho‘hbalari kabi turkum sifatida va alohida asarlar shaklida ijro etish amaliyotda rasm bo‘lgan. Ikkinchi guruh sho‘hbalarining soni har bir maqomlarda turlichadir.

